



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING
BUYRUG'I**

6 may 2024 yil.

0102416-son

**2023/2024 o'quv yili kunduzgi ta'lif shakli bakalavriat
ta'lif yo'naliishari bo'yicha bitiruvchilar uchun
Yakuniy Davlat attestatsiya sinovlari kun jadvallarini
tasdiqlash hamda samarali o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2009-yil 22-maydagi 160-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida"gi Nizomga va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 7- noyabrdagi 26-2018-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar" hamda 2021-yil 10-noyabrdagi 38-2021-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi nizomga kiritilayotgan o'zgartirishlar" to'g'risidagi buyruqlariga asosan kunduzgi ta'lif shakli bakalavriat ta'lif yo'naliishlari 2023-2024 o'quv yili bitiruvchilarining majburiy fanlardan Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari hamda bitiruv malakaviy ish himoyalarini tartibli o'tkazish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Univeristetda mavjud kunduzgi ta'lif shakli bakalavriat ta'lif yo'naliishlarini 2023-2024 o'quv yilda bitiruvchilari uchun o'tkaziladigan Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari buyruqning ilovalasiga muvofiq Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari kun jadvali tasdiqlansin.

2. Fakultet dekanlari va bitiruvchi tayyorlovchi kafedra mudirlariga:

-Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari va a'zolariga sinovlarni Nizom va o'rnatilgan tartib-qoidalar asosida o'tkazishlari uchun kerakli barcha shart-sharoitlar tashkil etilsin.

-yakuniy davlat attestatsiya sinovlariňning bitiruv malakaviy ish himoyalari boshlanish vaqtiga **soat 9-00** etib belgilansin.

-majuriy fanlardan **Yakuniy davlat attestatsiya sinovlarining 1-smenasi soat 9-00 da, 2-smena soat 14-00 da** boshlanishi belgilansin.

-bitiruvchilar uchun tashkil etiladigan majuriy fanlardan Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari boshlanishidan oldin **1-smenada soat 8-30 da, 2-smenada soat 13-30 ga qadar** universitet bosh binosida joylashgan ma'ruza zallariga yetib kelishlari ogoxlantirilsin.

-majburiy fanlardan Yakuniy davlat attestatsiya sinovlariga bitiruvchilar shaxsini tasdiqlovchi xujjat (pasport yoki xaydovchilik guvoxnomasi) bilan kelishlari va xujjat asosida sinovlarga qo'yilishi belgilansin va bitiruvchilarga yetkazilsin.

-Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayonlarida bitiruvchilar taqiqlangan (telefon, shpargalka, kalkulyator, turli kitoblar va boshqa turdag'i vositalarni auditoriyaga olib kirishi, foydalanishi, bitiruvchilarga yordam berishi, imtixon jarayonlariniadolatli va xolisona o'tkazishlariga to'sqinlik qilish xolatlarida bunday bitiruvchilarni sinovdan chetlashtirilsin va ushbu xolat bo'yicha YaDAK a'zolari tomonidan bayonnomalar rasmiylashtirilsin.

-majburiy fanlardan Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari, bitiruv malakaviy ish himoyalari o'tkazish jarayonlari video yozuvlarga muxirlinishi hamda yozib olingan video yozuvlarni sifatli saqlanishi tegishli kafedra mudirlari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

-Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdag'i attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yimasligi va bunday holat aniqlanganda Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 7-noyabrdagi 26-2018-son buyrug'iga ko'ra bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yilishi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinishi bitiruvchilarga yetkazilsin.

3. Universitet Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkilotiga:

-Yakuniy Davlat attetstatsiya sinovlarini tartibli va xolisona o‘tkalishi universitet Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti “Qalqon” guruhi YaDAK a’zolari bilan muvofiqlashtirgan xolda ta’mirlansin.

-tasdiqlangan kun jadvallariga muvofiq Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari o‘tkaziladigan bino va auditoriyaga bitiruvchi talabalar o‘ziga tegishli bo‘lgan shaxsini tasdiqlovchi xujjat (pasport yoki xaydovchilik guvoxnomasi) bilan kiritilishi ta’mirlansin.

-bitiruvchi talabalar taqiqlangan (telefon, shpargalka, kalkulyator, turli kitoblar, sumkalar va boshqa turdag) vositalarni bino va auditoriyaga olib kirishi ta’qiqlansin.

4. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.Mullajonov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor:



A.Yuldashev